# HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA KRIMINOLOGIK PROGNOZLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

***Yuldashev Sherali Nuralievich,***
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*
*Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi dotsenti, y.f.b.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasida raqamli texnologiyalar va kriminologik prognozlashdan foydalanishning huquqiy, tashkiliy hamda ilmiy-metodik asoslari o‘rganilgan. Profilaktik hisobning elektron shakli, hududiy xavf xaritalari, ma’lumotlar sifati, tahliliy modellar va idoralararo axborot almashinuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Algoritmik xatolik, diskriminatsiya, shaxsga doir ma’lumotlarning himoyasi va inson nazorati muammolariga alohida e’tibor qaratilib, milliy amaliyot uchun bosqichma-bosqich joriy qilinadigan huquqiy-kafolatli prognozlash modeli taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** huquqbuzarliklar profilaktikasi, raqamli texnologiyalar, kriminologik prognozlash, elektron profilaktik hisob, xavf xaritasi, algoritmik shaffoflik, shaxsga doir ma’lumotlar.

**Аннотация:** В статье исследуются правовые, организационные и научно-методические основы применения цифровых технологий и криминологического прогнозирования в профилактике правонарушений. Анализируются электронный профилактический учёт, территориальное картирование рисков, качество данных, аналитические модели и межведомственный информационный обмен. Особое внимание уделено алгоритмическим ошибкам, недопущению дискриминации, защите персональных данных и контролю со стороны человека. Предложена поэтапная модель прогнозирования с правовыми гарантиями.

**Ключевые слова:** профилактика правонарушений, цифровые технологии, криминологическое прогнозирование, электронный профилактический учёт, карта рисков, алгоритмическая прозрачность, персональные данные.

**Abstract:** The article examines the legal, organisational and methodological foundations of applying digital technologies and criminological forecasting to offence prevention. It analyses electronic preventive records, geographic risk mapping, data quality, analytical models and interagency information exchange. Particular attention is paid to algorithmic error, discrimination, personal-data protection and meaningful human oversight. The author proposes a phased, rights-based model of forecasting for national preventive practice.

**Keywords:** offence prevention, digital technologies, criminological forecasting, electronic preventive records, risk mapping, algorithmic transparency, personal data.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda an’anaviy hisobga olish va hisobot yuritish usullari kengayib borayotgan axborot oqimini har doim ham yetarli tezlikda tahlil qila olmaydi. Mahallalar, patrul xizmatlari, murojaatlar, ijtimoiy himoya tizimi va boshqa subyektlar yig‘adigan ma’lumotlarning mazmuni turlicha bo‘lgani sababli ular asosida yagona profilaktik qaror ishlab chiqish murakkablashadi. Raqamlashtirish ushbu tafovutni kamaytirishi mumkin, ammo kompyuterlashtirilgan hujjat aylanmasining o‘zi hali ilmiy asoslangan profilaktika hisoblanmaydi. Mazkur tadqiqotda raqamli yechimlarning amaliy ahamiyati huquqbuzarlik sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash va qonuniy, mutanosib chora tanlash imkoniyati bilan baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida profilaktika huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarning tizimi sifatida belgilangan.[1] Uning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi hamda viktimologik turlarga ajratilishi raqamli tahlil natijalarini turli huquqiy vazifalar bilan bog‘lashga imkon beradi. Masalan, ko‘cha yoritilishiga doir muntazam shikoyat hududiy umumiy profilaktika uchun axborot bo‘lsa, konkret shaxsga oid elektron yozuvdan foydalanish individual choralar bo‘yicha alohida qonuniy asosni talab qiladi. Shunday ekan, barcha raqamli ma’lumotlarni bir xil toifada ko‘rish ham ilmiy, ham huquqiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Kriminologik prognozlashni kelajakdagi voqeani mutlaq aniqlik bilan oldindan aytish emas, ma’lum shart-sharoitlar saqlanib qolganida huquqbuzarlik xavfining ehtimoliy o‘zgarishini ilmiy usullar yordamida baholash sifatida tushunish lozim. Ushbu yondashuvda prognoz kuzatilgan holatlar, vaqt qatori, hudud xususiyatlari va boshqa tushuntiruvchi ko‘rsatkichlardan kelib chiqadigan shartli xulosadir. Uning natijasi huquqiy aybdorlik yoki shaxsning kelgusida albatta huquqbuzarlik sodir etishini tasdiqlovchi dalil bo‘la olmaydi. Prognoz ehtimol va noaniqlikni ochiq ko‘rsatgandagina tegishli boshqaruv qaroriga ehtiyotkor yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Profilaktika tizimini raqamlashtirishning birinchi ilmiy muammosi ma’lumotlarning maqsadga muvofiqligini aniqlashdir. Huquqbuzarlik haqida rasmiy ro‘yxatga olingan xabarlar real xavfning barcha jihatlarini to‘liq aks ettirmaydi: murojaat etish faolligi, xizmatga ishonch, monitoring imkoniyati va hududiy ma’muriy amaliyot qayd etilgan sonlarga ta’sir qilishi mumkin. Agar bir mahallada ko‘proq murojaat qabul qilinsa, uni faqat statistika asosida boshqa mahalladan xavfliroq deb e’lon qilish xato natijaga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois xom ko‘rsatkich bilan kriminogen xavf tushunchasi orasiga tekshirish va izohlash bosqichini kiritish zarur.

[1]O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 3-moddasi (profilaktika tushunchasi va turlari). https://lex.uz/docs/2387357

Huquqbuzarliklar profilaktikasi uchun “raqamli iz” tushunchasining ham chegarasi mavjud.[2] Fuqarolarning kundalik onlayn faolligi, harakatlanishi yoki aloqa tarixiga doir ma’lumot mavjudligi ushbu axborotdan huquqni muhofaza qilish maqsadida foydalanish mumkinligini anglatmaydi. Qonuniylik, aniq maqsad, ma’lumotlarni minimallashtirish va foydalanish vakolatining belgilanganligi asosiy kafolatlardan bo‘lishi kerak. Nazorat qilinmaydigan keng ko‘lamli kuzatuv xavfni aniqlashdan ko‘ra fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi va davlat organlariga ishonchiga ko‘proq zarar yetkazishi mumkin.

“Profilaktik hisob axborot tizimi” atamasi 2026-yil 15-yanvardagi qonunchilik o‘zgarishi bilan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-371-sonli Qonunning asosiy tushunchalari qatoriga kiritildi.[3] Ushbu yangilik elektron hisobning axborotni to‘plash, saqlash, izlash, qayta ishlash va foydalanishga oid tashkiliy imkoniyatini huquqiy jihatdan ta’riflaydi. Biroq axborot tizimining mavjudligi avtomatik xavf ballari hisoblab chiqarilishi, biometrik kuzatuv yoki har qanday idoraviy ma’lumotni cheksiz birlashtirishga umumiy ruxsat sifatida talqin qilinmasligi lozim. Har bir yangi texnologik funksiya uchun uning maqsadi, vakolatli foydalanuvchilari va himoya kafolatlari mustaqil baholanishi kerak.

Elektron profilaktik hisob bilan hududiy xavfni prognozlashning predmetlari bir xil emas. Hisob tizimi qonunda belgilangan tartibda konkret shaxsga oid qaydlarni yuritishga xizmat qiladi. Hududiy tahlil esa ayrim manzillar, vaqt oralig‘i, obyektlar yoki vaziyatlarda huquqbuzarlik xavfi qanday taqsimlanishini aniqlashni ko‘zlaydi. Birinchi holatda shaxsga doir huquqlar va qaydning asoslanganligi alohida tekshiriladi, ikkinchisida esa geostatistik sifat, omillarning xolis bahosi va hududni asossiz stigmatizatsiya qilmaslik muhim. Ularning ma’lumotlar bazalari qisman kesishishi mumkin, biroq huquqiy tartiblari va natijani qo‘llash chegaralari tenglashtirilmasligi zarur.

Kriminologik xaritalash huquqbuzarliklar sodir etilgan joylarning geografik jamlanishini tahlil qilish usullaridan biridir. Unda hodisalar soni, vaqt oralig‘i, transport oqimi, savdo nuqtalari yoki yoritish darajasi singari ko‘rsatkichlar muayyan hududiy qonuniyatlarni tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin. Biroq geografik nuqta xaritadagi doimiy xavfni bildirmaydi: hududdagi aholi soni, qatnov hajmi va voqealarni qayd etish usuli hisobga olinmasa, xarita noto‘g‘ri talqinga olib keladi. Xavf xaritasini jinoyatchilar xaritasi emas, hududiy sharoitlarni yaxshilashga oid resurs taqsimotining tahliliy vositasi sifatida qo‘llash ilmiy jihatdan maqbulroqdir.

Axborot sifatini ta’minlash uchun huquqbuzarlikning tasnifi, sodir bo‘lgan vaqt, aniqlangan sana, manzil aniqligi va voqea maqomining o‘zgarishi bir xil qoidalar

[2]O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/4396419

[3]O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 15-yanvardagi O‘RQ-1114-son Qonuni; O‘RQ-371-son Qonun, 3-modda (“profilaktik hisob axborot tizimi” tushunchasi). https://lex.uz/docs/2387357

asosida qayd qilinishi kerak. Aks holda bir hodisa turli idoralar bazalarida takroriy hisoblanishi, tergovga oid ma’lumot profilaktik holat bilan chalkashishi yoki avval tuzatilgan xato prognozda yana paydo bo‘lishi mumkin. “Ma’lumotlar pasporti — manba, yig‘ilish maqsadi, yangilanish davri, aniqlik chegarasi va saqlash muddati ko‘rsatilgan tavsif — bunday xavfni kamaytirish uchun taklif etiladigan metodik vositadir”-degan mualliflik taklifini taklif etamiz.

Sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan xavf modeli kirish ma’lumotidagi xatoni yashirib qo‘yishi mumkin.[4] Masalan, muayyan hududda patrul xizmati ko‘proq faoliyat yuritgani uchun qaydlar soni oshsa, algoritm shu joyni doimiy ravishda eng xavfli hudud deb belgilashi va qo‘shimcha patrul yuborishni tavsiya etishi mumkin. Natijada model qayd etish intensivligidan hosil bo‘lgan farqni o‘zi yana kuchaytiradi. Ilmiy adabiyotlarda bu turdagi qayta aloqa mexanizmi prognozlash tizimlarini baholashda jiddiy xatar sifatida ko‘riladi. Uni kamaytirish uchun aniqlangan hodisalar bilan aholining murojaatlari va boshqa mustaqil ko‘rsatkichlarni taqqoslash lozim.

Yevropa Ittifoqining sun’iy intellektni tartibga solishga oid hujjati huquqni muhofaza qilishda ayrim AI qo‘llanilishlarini yuqori xavfli toifalarga kiritadi va shaxsning jinoyat sodir etish xavfini faqat profil yoki shaxsiy xususiyatlar asosida baholovchi ayrim usullarni taqiqlaydi.[5] Ushbu yondashuvni O‘zbekiston uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiy qoida sifatida ko‘rsatish noto‘g‘ri; u qiyosiy huquqiy manbadir. Uning ilmiy ahamiyati texnologiya imkoniyati mavjudligini huquqiy maqbullik bilan tenglashtirmaslik, inson huquqlariga ta’sirni oldindan baholash va algoritmik qarorlarga nisbatan tashqi nazorat joriy etish g‘oyasidadir.

BMT doirasidagi jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha yondashuvlar profilaktik choralarning huquqiylik, davlat-jamiyat hamkorligi va dalillarga asoslangan rejalashtirish bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.[6] Raqamli vositalar ana shu tamoyillarga xizmat qilsa, resurslarni joyiga yetkazish va xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi. Aksincha, ma’lumotlar bazasi o‘z-o‘zidan huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni aniqlash yoki fuqaroga nisbat berilgan xavfni isbotlash vositasiga aylantirilsa, profilaktikaning ijtimoiy mohiyati yo‘qoladi. Shu ma’noda raqamli siyosat samarasi texnik platformadan avval maqsadning aniqligi va huquqiy kafolatlarga bog‘liq.

Raqamli tahlil hududiy profilaktikani rejalashtirishda xodimlarning operativ fikrlashini almashtirmasdan, ularga tekshiriladigan farazlarni taqdim etishi mumkin. Masalan, tungi vaqtda ma’lum bekatlar atrofidagi mulkka qarshi huquqbuzarliklar qaydlari ko‘paygan bo‘lsa, buni avval yoritish, transport jadvali, savdo obyektlari

[4]Lum K., Isaac W. To predict and serve? Significance. 2016;13(5):14–19. https://doi.org/10.1111/j.1740-9713.2016.00960.x

[5]Regulation (EU) 2024/1689 (Artificial Intelligence Act), Articles 5 and 6, Annex III. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj

[6]United Nations Economic and Social Council. Guidelines for the Prevention of Crime, ECOSOC Resolution 2002/13, Annex. https://www.unodc.org/pdf/criminal_justice/UN_Standards_and_Norms_CPCJ.pdf

faoliyati va murojaatlarning kelib tushish tartibi bilan solishtirish maqsadga muvofiq. Faqat tekshiruv natijasida aniqlangan amaliy omillarga qarab yoritishni yaxshilash, nazorat vaqtini qayta belgilash yoki tushuntirish ishlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. Bunda prognoz ham, javob chorasi ham keyingi ma’lumotlar asosida baholanishi zarur.

Raqamli tizimlar o‘rtasida idoralararo ma’lumot almashinuvi tashkil etilsa, “hamma hamma narsani ko‘radi” tamoyili emas, vazifa va vakolatga muvofiq kirish rejimi ustuvor bo‘lishi kerak. Profilaktika inspektoriga zarur bo‘lgan umumiy xizmat axboroti bilan tibbiy sir, ijtimoiy xizmat ma’lumotlari yoki bolaga doir maxfiy qaydlar turli darajada himoya qilinadi. Foydalanuvchi roli, ma’lumotni ko‘rish sababi va o‘zgartirish tarixini qayd etish axborot almashinuvi samaradorligini kamaytirmaydi; aksincha, uning huquqiy barqarorligini ta’minlaydi. Yagona idoralararo interfeys haqidagi taklif alohida qonuniy asoslar va axborot xavfsizligi baholovisiz amalga oshirilmasligi lozim.

Prognoz modelining aniqligini sinashda umumiy to‘g‘ri javob foizi yetarli mezon emas. Huquqbuzarlik kam uchraydigan holatlarda deyarli barcha vaziyatlarni “xavf yo‘q” deb belgilovchi model yuqori umumiy aniqlik ko‘rsatishi, ammo profilaktika uchun deyarli foydasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli noto‘g‘ri ijobiy va noto‘g‘ri salbiy xulosalar, aniqlash sezgirligi, prognozning vaqt bo‘yicha barqarorligi hamda har xil hududlarda xatolar farqi alohida o‘lchanishi kerak. Ushbu ko‘rsatkichlarni tushuntirib bera olmaydigan tizimga fuqarolar huquqlariga bevosita ta’sir qiladigan qarorlar uchun mustaqil vakolat berish ilmiy asosga ega emas.

Profilaktika xodimining tahliliy qarorga munosabati faol va mustaqil bo‘lishi kerak. U algoritm tavsiyasini tasdiqlashdan oldin voqea tafsilotini, axborot manbasini, mavjud qarama-qarshi dalillarni va ehtimoliy xatoni tekshiradi. Avtomatik ko‘rsatkich yuqori bo‘lsa-yu, asosiy ma’lumot xato kiritilgani aniqlansa, xodim xulosani rad etishi va buning sababini qayd qilishi lozim. Bunday “inson nazorati” faqat tasdiqlash tugmasini bosishdan iborat rasmiy jarayon bo‘lmasligi shart. Tashkiliy jihatdan insonning algoritmga asosli e’tiroz bildirish huquqi va mas’uliyati xizmat yo‘riqnomalarida aniq belgilanadi.

Kriminologik prognozlashga tayyorlikni baholash uchun maqolada to‘rt bosqichli metodik ketma-ketlik taklif qilinadi. Birinchi bosqich — amaldagi ma’lumotlarning inventarizatsiyasi va huquqiy audit; ikkinchisi — shaxsni identifikatsiyalamasdan hududiy va vaqtga oid umumlashtirilgan tahlillar; uchinchisi — chegaralangan pilot loyiha va mustaqil aniqlik baholovi; to‘rtinchisi — samaradorligi hamda inson huquqlariga ta’siri tasdiqlangan funksiyalarni nazorat ostida kengaytirish. Bosqichlar orasidagi o‘tish mezonlari ochiq belgilanishi, faqat texnologik qiziqish yoki ma’muriy topshiriq sababli sinov natijalarini chetlab o‘tishga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Tadqiqotning amaliy taklifi sifatida “profilaktik raqamli qaror pasporti” tushunchasi ilgari suriladi. Unda muammoning izohi, ishlatilgan ma’lumot toifalari,

modelning maqsadi, aniqligi, xatolik ehtimoli, tekshiruv uchun mas’ul shaxs, qonuniy foydalanish chegarasi va o‘chirish yoki qayta ko‘rib chiqish shartlari aks ettiriladi. Pasport alohida idoraviy hujjatni ko‘paytirish uchun emas, har bir texnologik funksiya yuzasidan javobgarlikni aniqlashtirish uchun mo‘ljallanadi. Uning formati normativ tartibga solishga muhtoj ilmiy taklifdir; u hozir amalda mavjud bo‘lgan majburiy rasmiy blank deb talqin qilinmaydi.

Raqamli vositalarning faoliyatga ta’sirini o‘lchashda taqqoslash uchun asosiy davr va o‘xshash hudud tanlanishi kerak. Masalan, ma’lumot asosida yoritish tizimini yaxshilagan mahallada huquqbuzarliklar kamaygan bo‘lsa, natijani to‘liq yangi platformaga bog‘lash mumkin emas: mavsum, patrul faolligi va hududiy migratsiya kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Nazorat guruhlari, oldin-keyin qiyosi va xizmatga murojaatlar dinamikasi birgalikda tahlil etilganda olingan natija ishonchliroq bo‘ladi. Shu jihatdan kriminologik tadqiqotlar statistik hisobotni sababiy baholashdan farqlashi muhimdir.

Xodimlarning raqamli kompetensiyasi faqat dasturda ma’lumot qidirishni bilishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Profilaktika inspektori asosiy statistik xatolar, ehtimollik, ma’lumotlar manbasi, algoritmik og‘ish va shaxsga doir ma’lumotlarning huquqiy rejimi haqida amaliy tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Malaka oshirish mashg‘ulotlarida “yuqori xavf” deb baholangan, ammo eskirgan qaydga asoslangan vaziyatlar, takroran kiritilgan hodisalar yoki hududiy reytingning noto‘g‘ri talqini bo‘yicha kazuslar qo‘llash mumkin. Bunday mashg‘ulotlar xodimga tayyor ekran natijasiga tanqidiy munosabat bildirish ko‘nikmasini beradi.

Ma’lumot almashinuvida javobgarlikni belgilash uchun hamkor organlar o‘rtasidagi protseduralar aniq bo‘lishi zarur. Kim ma’lumot kiritadi, kim xatoni tuzatadi, qaysi organ yangilashni tasdiqlaydi, foydalanuvchi o‘z vakolati tugagach tizimdan qanday chiqariladi — bular texnik boshqaruv bilan birga huquqiy nazorat masalalaridir. Tartib aniq bo‘lmasa, noto‘g‘ri yozuv uchun bir idora boshqasiga havola qilishi va shaxsning ma’lumotni tuzatishga oid murojaati samarasiz qolishi mumkin. Shu sababli raqamli integratsiya axborot tizimlari sonini ko‘paytirishdan avval javobgarlik zanjirini tushunarli belgilashni talab etadi.

Xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirishda mavjud institutlarning vazifasini saqlash zarur. Ayrim davlatlarda politsiya analitikasi, jamoatchilik xavfsizligi dasturlari va ma’lumotlarga tayangan hududiy boshqaruv bir-biriga yaqin ishlashi mumkin. Biroq xorijiy platformaning natijasi boshqa mamlakatdagi huquqiy normalar, statistika sifati, fuqarolarning murojaat odati va institutsional ishonch sharoitida olingan bo‘ladi. Shuning uchun dasturiy yechimni tayyor holatda ko‘chirish o‘rniga muammoni aniqlash, ma’lumotning qonuniyligini tekshirish va mahalliy sinov natijasiga tayangan qaror qabul qilish ustuvor ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotda ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, ular asosida qonuniy qaror qabul qilish, qaror ijrosini tekshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan model taklif etiladi. Dastlab ma’lumotning ishonchliligi va ishlov berish huquqiy asosi tekshiriladi; keyin statistik yoki ekspert tahlili orqali xavf taxmini shakllantiriladi. Navbatdagi bosqichda vakolatli xodim kontekstni hisobga olib chora tanlaydi, amalga oshirilgan choraning natijasi va huquqiy ta’siri kuzatiladi. Yakunda yangi ma’lumotlar yordamida xato xulosalar tuzatiladi, zarur bo‘lsa modeldan foydalanish to‘xtatiladi. Ushbu siklning ustunligi shundaki, u texnologiyani o‘z-o‘zicha maqsadga emas, tekshiriladigan profilaktik jarayonga aylantiradi.

Taklif etilayotgan modelning huquqiy kafolatlari sifatida foydalanishning aniq maqsadini belgilash, qarorga vakolatli shaxsni biriktirish, maxfiylikni ta’minlash, xatolarni tuzatish, diskriminatsiya ehtimolini davriy tekshirish va shikoyat mexanizmlarining amalda ishlashi ko‘rsatiladi.[7] Fuqaroga nisbatan noqulay huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi qaror algoritmning avtomatik bahosiga emas, tegishli moddiy va protsessual normalarga tayanishi shart. Ushbu tamoyil raqamli innovatsiyalarni rad etmaydi, aksincha ularni konstitutsiyaviy qadriyatlarga mos, huquqiy jihatdan ishonchli vosita sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, birinchi navbatda raqamli profilaktika tizimlari uchun ma’lumot sifati va qonuniy foydalanish mezonlarini yagona metodik yondashuv asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, shaxsni profillashdan ko‘ra, hududiy sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan umumlashtirilgan prognozlarni sinovdan o‘tkazish huquqiy tavakkalchiliklarni kamaytiradi. Uchinchidan, har bir tahliliy tizim uchun model tavsiyasining cheklovlari va mas’ul qaror qabul qiluvchi subyektni ko‘rsatuvchi pasport yuritilishi taklif etiladi. To‘rtinchidan, xatolikka oid mustaqil audit natijalarini malaka oshirish dasturlariga tatbiq etish orqali huquqiy va statistik bilimlar uyg‘unligi ta’minlanishi mumkin.

Beshinchidan, profilaktika faoliyati natijadorligini faqat elektron qaydlar yoki oldindan bashorat qilingan hodisalar soni bilan o‘lchash amaliyotidan voz kechib, xato qaydlarni tuzatish tezligi, profilaktik choraning real ta’siri va fuqarolar huquqlarining saqlanishini birgalikda baholash kerak. Oltinchidan, axborot tizimlarida idoralararo almashuvning rolga asoslangan rejimi va kirish tarixini nazorat qilish tartibi mustahkamlanishi lozim. Yettinchidan, xavf prognozlariga asoslangan davlat aralashuvi oldidan ularning huquqiy oqibatlari, muqobil kamroq cheklovchi choralar va inson nazorati mavjudligi tekshirilishi kerak. Ushbu qoidalar majmui texnologik yangilikni mas’ul boshqaruv bilan uyg‘unlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish huquqbuzarliklar profilaktikasi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi, biroq uning samarasi axborot hajmida emas, ilmiy asoslangan va qonuniy qarorlar sifatida namoyon bo‘ladi. Kriminologik prognozlashni

[7]O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi tahrir. https://lex.uz/docs/6445145

shaxsning kelajakdagi aybdorligini “aniqlash” vositasiga aylantirish huquqiy va metodologik jihatdan maqbul emas. Eng istiqbolli yo‘nalish — hudud va vaziyatga oid omillarni ishonchli baholash, profilaktika resurslarini maqsadli taqsimlash va qabul qilingan choralarni mustaqil tekshirishdir. Inson huquqlari, qonuniylik va xatolarni tuzatish mexanizmlari ustuvor qo‘yilgandagina raqamli texnologiyalar huquqbuzarliklar profilaktikasi institutining barqaror takomillashuviga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. https://lex.uz/docs/6445145

2. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni (amaldagi tahrir). https://lex.uz/docs/2387357

3. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 15-yanvardagi O‘RQ-1114-son Qonuni. O‘RQ-371-son Qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar. https://lex.uz/docs/2387357

4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/4396419

5. United Nations ECOSOC. Guidelines for the Prevention of Crime. Resolution 2002/13. https://www.unodc.org/pdf/criminal_justice/UN_Standards_and_Norms_CPCJ.pdf

6. European Parliament and Council. Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj

7. Lum K., Isaac W. To predict and serve? // Significance. – 2016. – Vol. 13, No. 5. – P. 14–19. https://doi.org/10.1111/j.1740-9713.2016.00960.x

8. Perry W.L., McInnis B., Price C.C., Smith S.C., Hollywood J.S. Predictive Policing: The Role of Crime Forecasting in Law Enforcement Operations. RAND Corporation, 2013. https://www.rand.org/pubs/research_reports/RR233.html

9. National Institute of Standards and Technology. Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). NIST AI 100-1, 2023. https://doi.org/10.6028/NIST.AI.100-1

10. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making Them Work. New York: United Nations, 2010. https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/crimeprevention/10-52410_Guidelines_eBook.pdf